

OLIY O'QUV YURLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY
ETISHNING TARIXIY ILDIZLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

G'ofurova Odinaxon Zafar qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18184043>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni yoritib berilgan. Unda pedagogik texnologiyalarning vujudga kelishiga ta'sir etgan omillar; an'anaviy ta'limdan innovatsion ta'limga o'tish jarayoni tahlil qilinadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning samaradorlik ko'rsatkichlari — o'quv jarayonining sifati, talabalarning faolligi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalarni oliy ta'limda qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, ta'lim jarayoni, tarixiy rivojlanish, innovatsion ta'lim, samaradorlik ko'rsatkichlari, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, ta'lim sifati, zamonaviy pedagogika.

Abstract. This article describes the historical roots of the introduction of pedagogical technologies in higher educational institutions, the stages of their formation, and their place in the modern educational process. It analyzes the factors influencing the creation of pedagogical technologies, the process of transition from traditional education to innovative education.

Also, the effect of the implementation of pedagogical technologies on the educational process - the quality of the educational process, the activity of students, the development of independent thinking skills and professional competences - will be revealed. The results of the research show that the use of pedagogical technologies in higher education is of great importance in increasing the effectiveness of education.

Keywords: pedagogical technologies, higher education, educational process, historical development, innovative education, efficiency indicators, competency approach, interactive methods, quality of education, modern pedagogy.

Аннотация. В данной статье описаны исторические корни внедрения педагогических технологий в высших учебных заведениях, этапы их становления и их место в современном образовательном процессе. Анализируются факторы, влияющие на создание педагогических технологий, процесс перехода от традиционного образования к инновационному образованию.

Также будет выявлено влияние внедрения педагогических технологий на образовательный процесс - качество образовательного процесса, активность студентов, развитие навыков самостоятельного мышления и профессиональных компетенций.

Результаты исследования показывают, что использование педагогических технологий в высшей школе имеет большое значение в повышении эффективности образования.

Ключевые слова: педагогические технологии, высшее образование, образовательный процесс, историческое развитие, инновационное образование, показатели эффективности, компетентностный подход, интерактивные методы, качество образования, современная педагогика.

Zamonning shiddatiga mos tezkor fikrlovchi, teran g'oyalarni izlab topuvchi bundayin kadrlarni yetishtirish uchun pedagogika fanida ham yangi innovatsion uslublardan pedagogik texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ayni damda dunyoning turli burchaklarida pedagoglar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va yo'lga qo'yilayotgan pedagogik texnologiyalar va innovatsion uslublardan foydalanib darslarni tashkil etish yoki ularga biror-bir qo'shimchalarni qo'shgan holda o'ziga moslab talqin etish kabi holatlar anchagina ko'paymoqda.

Hozirgi ta'lim olish deganda faqatgina biror-bir o'quv binosigina tushunilmasdan hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiyalari orqali ham olinadigan bilimlar tushunilmoqda. Ta'limning bunday shiddat bilan rivojlanishi yoki ildamlab ketishi har bir sohani yanada yuksalishiga bir turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonga mos holda rivojlanib borishi ta'lim olish tushunchasining ham yangilanishiga olib kelsa ajab emas.

Barchamizga ma'lumki hozirgi globallashgan jamiyatlarda zamonaviy insonlarning ta'lim olishi chegara bilmaydi. Maktabdagi umumiy ta'lim keyinchalik oliy ta'lim va bundan tashqari shaxsiy qiziqishlaridan va shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiquvchi yo'nalishlaridan istagancha zamonaviy axborot-kommunikatsiyalari orqali ma'lumotlar olish, ularni tadbqiq etish uchun barcha sharoitlar mavjud. Shunday ekan zamonaviy insonlar ta'limning uzluksizligi ya'ni davomiy bo'lishini ta'minlashi zarur. Bu davrning talabi hamdir. Muammo zamonaviy axborot texnologiyalarga bo'lgan ko'nikmani yanada shakllantiradi va unga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Yigirma birinchi asr axborotlashish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish har bir ta'lim muassasasida o'qitish va o'qish jarayonida, ta'lim muassasasining boshqarilishida, ta'lim muassasasi bo'linmalarida va uning faoliyatini axborotlashtirish talabini ham qo'yadi.

Pedagogik texnologiyalarning ba'zi turlari har qanday dars mashg'ulotlari va dars faoliyatlari uchun ham to'g'ri keladigan bo'lsa, ba'zi bir texnologiyalar maqsadli va bir yo'nalishni talqin etib aynan bir fan uchun ma'qulroq qilib ishlab chiqiladi. Bu ham o'z sohasini mutaxassislariga bog'liq bo'lib o'zining fanini yuqori darajada rivojlantirish va o'quvchilarda samarali darslarni tashkillashtirish uchun xizmat qiladi.

Ya'ni bunda pedagog o'quvchilar bilan noan'anaviy darslarni o'tkazgan holda ular bilan yakkama-yakka ishlash yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining mahoratidan foydalangan holda o'quvchilarni darsga jalb etish va o'quvchilarning darsdagi faoliyatini samaradorligini oshirish uchun qilinayotgan say-harakatlari yig'indisidir. Bu harakatlar darslarning yanada samarali va qiziqarli olib borilishiga xizmat qilishi lozim bo'ladi. Shu o'rinda pedagoglardan ham ma'suliyatni his qilgan holda eng samarali metod va usullarni ishlab chiqish va undan to'g'ri foydalanish talab etiladi. "Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda-XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Ilk bor bu boradagi fikrlar AQSh pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy maqsad bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayondir.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, bilim olish jarayonida vaqt, vositalar va insonlarni bir-birlari to'la muvofiqlashtirishni ilmiy asosida yoritib berishdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir soha o'zidan kelib chiqqan holda pedtexnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yadi. Bunda albatta tarix fani ham innovatsion yondashuvlar orqali chuqur va samarali o'rganilishi tatbiq etilmoqda. Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni, o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Bunda ma'lum bir mavzu yuzasidan chuqur o'rganishni pedagog va uning o'quvchilari tomonidan tanlov natijasiga ko'ra amalga tadbiq etilishi nazarda tutiladi. Tanlov natijasiga ko'ra kelishilgan mavzu yuzasidan chuqurroq tahlillarni olib borish, o'zgacha usul va metodlardan zamonaviy texnologiyalar yordamida darsni o'tkazish lozim bo'ladi. Dars yakunida esa o'quvchilarning mashg'ulot davomidagi faolliklari baholanadi va o'quvchilarning o'zlaridan ham kichik so'rovnomalar orqali mashg'ulot haqidagi fikrlari bilib olinadi.

Axborot texnologiyasi bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo'lib, ular yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin.

Ayniqsa raqamli texnologiyalarni fan tarmoqlari bo'yicha to'g'ri qo'llash juda yaxshi va samarali natijalarga olib keladi. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'limda ham zamonaviy texnologiyalar kirib kelib ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'layotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu jumladan tarix fanida zamonaviy texnologiyalar tarixchini yanada qiziqarli va mazmunli izlanishlar olib borishga undamoqda.

Tarixiy ma'lumotlarni saralash, ajratish, aniqlik kiritish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda zamonaviy texnologiyalar juda yaxshi ko'makchi bo'lishi mumkin. Oxirgi paytlarda raqamli tarix atamasi tez-tez uchrab turibdi. Xo'sh bu raqamli tarix deganda nimani tushunishimiz kerak?

Raqamli tarix bu tarixchilarning arxiv materiallarini raqamlashtirish va ularni internetga kirish imkoni bo'lgan foydalanuvchilarga taqdim etish uchun zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi tushuniladi. Raqamli tarix onlayn ma'lumotlar bazasiga havolalar beradi, raqamli tarixchilarning ilmiy sohada rolini tushuntiradi va hozirgi zamonaviy ilm-fanda tarixchi nimalarga tayyor turishi kerakligi tushuntirib o'tadi. Keng ma'noda bu tushunchaga ilmiy aniq ta'rif bo'lmasada, umumiy qabul qilingan tushunchalarga muvofiq tarixiy dalillarni to'plash, miqdorini aniqlash, talqin etish va baham ko'rishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday keng imkoniyat esa yer yuzining qay nuqtasida bo'lmasin tarixiy fakt va ma'lumotlardan foydalana olish, ilmiy izlanishlar davomida qo'llay olishini anglatadi.

Tarix chegara bilmas fan ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, uning birgina faktini isbotlash yoki rad etish uchun ko'plab izlanish va tadqiqotlar olib borish kerak bo'ladi. Shunday ekan fan doirasida qo'llanilayotgan va kelajakda qo'llanilishi kutilayotgan zamonaviy texnologiyalar bizga tarixdagi kichik topilmalardan tortib, to ulkan imperiyalar taqdirini yoritishda zamonaviy texnologiyalar yordami zarur bo'ladi. Bu esa o'z navbatida izlanuvchi olimlar qatorida pedagoglarning ham zamonaviy texnologiyalarda foydalana olishi, yoki ularda xabardor holda o'quvchilarga ma'lumot bera olishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda, pedagog va o'quvchi-talabalarni ko'proq mustaqil fikrlashga, birgalikda hamkorlik qilgan holda dars mashg'ulotlarini olib borishni ham nazarga tutadi. Chunki dars jarayonlarida qaysi pedagogik metodni qo'llash, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda qanday yondashish, e'tiborni ko'proq mavzuning qaysi jihatlariga qaratish kabi masalalar bevosita pedagogning o'ziga borib taqaladi. Ta'lim tizimida yangi texnologiyalar pedagogik jarayoni hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Bu usullarning ahamiyatli tomoni o'qituvchi-pedagog bilan bir qatorda o'quvchi-talabalar birgalikda faoliyat ko'rsatishidir. Ya'ni dars mashg'ulotlari davomida tinglovchi sifatida o'quvchilar ham o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishi, darsning olib borilishi va mazmuniga ta'sir o'tkaza olishi mumkin.

Raqamli tarixning eng katta yutuqlaridan biri onlayn arxiv bo'lib, unda izlanuvchi olimlar tartibga solingan hujjatlar orasidan o'ziga kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida olib foydalanishi mumkin bo'ladi. Onlayn videolar orqali keng ommani tarixga qiziqishini orttirib ilm olishga qiziqtirish imkoni ham katta. Ijtimoiy tarmoqlar orqali qisqa va qiziqarli videolar qo'yish zamonaviy ilm oluvchilarni jalb etishi turgan gap. XX asrning 80-90-yillarida tarix fanida kompyuterlardan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalangan bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llana boshlandi. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega ma'lumotlarni saqlash imkoniyati oshib bordi. 1986-yilda "tarixchi va kompyuter" nomli xalqaro assatsatsiya tuzildi va 1992-yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kiritildi. Texnologiyalar zamonaviylashib hozirgi kunga kelib har qanday inson o'zi yoki bajariyotgan ishlari haqida istalgan joydan turib internet orqali ma'lum qilishi mumkin. Tarixchi olim shaxsiy ijtimoiy tarmoqlari orqali olib borgan izlanishlari haqida ommaga xabar berishi mumkin. O'z navbatida bu ma'lumotlardan boshqa izlanuvchilar ham foydalanish imkonini beradi.

Dunyo bo'ylab izlanuvchi olimlarning hamkorligini mustahkamlash ishlarini ham raqamli tarix orqali samarali olib borish mumkin. Hamma soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bugun barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda jadallik bilan olib borilmoqda. Ayniqsa, pandimiya sharoitida bu kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan ishlash imkoniyatiga katta ehtiyoj tug'ildi. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilga kelib, dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lib qolishi prognoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish eng to'g'ri strategik yo'nalish hisoblanadi. Albatta dunyo iqtisodiyot-ning chorak qismi chakana ko'rsatkich emas, bundan tashqari bu ko'rsatkichlar kundankunga o'sib borayotganligiga hammamiz guvohmiz. Shunday ekan biz uchun eng samarali yo'l tez orada hamma tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va undan foydalanishning eng samarali va mahsuldor yo'llarini amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.

Xulosa

Oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u ta'lim-tarbiya tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Dastlab an'anaviy o'qitish shakllari ustun bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ilm-fan, texnika va jamiyat taraqqiyoti ta'sirida ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar kirib kela boshladi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'limda tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng rivojlandi.

Pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim tizimiga joriy etishning asosiy maqsadi - ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdan iboratdir. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar faolligini oshiradi, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Toshkent-2017. 22-bet.
2. S. Mirhayitova. Pedagogik texnologiya. Toshkent-2020. 5-bet.
3. J. Yo'ldoshev. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 108-bet.
4. Y. G'affarov. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 154-bet.
5. T.Toyloqov. Raqamli tarix nima? <https://cyberleninka.ru>
6. Ya. X.G'afforov. Tarix O'qitish Metodikasi. Toshkent. Turon-Iqbol-2022. 211bet.
7. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Unversiteti. Tarix fanining nazariy asoslari. Toshkent -2020. 145-bet.
8. Alimova. D. A. Tarix fani metadologiyasi. Toshkent-2018. 234-bet.
9. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi taraqqiyot poydevori. 27-may 2020. <https://www.mtc.uz/uz/news/1403>